

МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHI

*Pirnazarova Nafosat Jurakulovna**Jizzax shahar 32-DMTT uslubchisi**Sirajova Nigora Isomitdinovna**Jizzax shahar 1-DMTT uslubchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi, nutq rivojlanishining kechikishiga sabab bo'luvchi omillar, bolalar nuqtida kattalarning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Tarbiyachi pedagoglarning nutq madaniyati va ijtimoiy, psixologik xususiyatlari ham yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, ko'rsatkich, rivojlanish, jamiyat, mashg'ulot, taqlidchanlik, maktabgacha yosh, pedagog, talaffuz, nutq me'yori, nutqning ifodalanishi, tovush xususiyati.

Inson zoti yaralibdiki, hayvonot olamidan o'z nutqi orqali ajaralib turishi barchamizga ayondir. Agar inson tug'ilgandanoq nutqidan mahrum bo'lganida, u hech qachon madaniyatli, madaniy va axloqiy jihatdan rivojlangan fuqaroga aylanmaydi va umrining oxirigacha, yarim hayvon bo'lib qolishga, mahkum bo'lar edi. Nutq jarayonida bola rivojlanadi, aqliy va xulq-atvor fazilatlariga ega bo'ladi. Nutq haqida so'z yuritar ekanmiz, bu borada Husayn Voiz Koshifiyning fikrlari ahamiyatga molikdir. Husayn Voiz Koshifiy o'zining nutq odobiga doir, "Futuvvatnomayi sultoni" asarida shunday yozadi: "Agar nutq senikimi yoki sen nutqniki, deb so'rasa aytgil: men nutqniki va nutq menikidir, chunki nutq insonlik daraxtining mevasidir, zero, daraxtni mevan va mevani daraxtdan ajratib bo'lmaydi". Darhaqiqat, nutqi rivojlanmagan insoning mevasiz daraxtdan va suvsiz quduqdan farqi qolmaydi. Shu sababli, biz, nutq rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni maktabgacha tarbiya yoshidan boshlashimiz bejiz emasdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga tarbiyachilar boshchilik qiladilar. Shuning uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'z nutqi sodda, ravon, tushunarli bo'lishi kerak va shu bilan birga nutqida har xil konselyarizm, varvarizm, vulgarizmlardan foydalanmasligi, umuman olganda, badiiy til me'yorlariga amal qilishi darkor. Chunki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda taqlidchalik xususiyati nihoyatda yuqori bo'ladi. Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday yozadi: "Tarbiyachi - ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand

qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachini o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak". Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa har bir bolaning shaxs sifatida javobgar ekanligini taqozo etadi. Shunga ko'ra, tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo'ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi, bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyan qilishi, bolalarning xulq-atvori, ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun tarbiyachi-pedagoglarning faqatgina o'zlari harakat qilishlari maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Chunki "qars ikki qo'ldan chiqadi". Bu borada ota-onalar ham birdek mas'uldir. Oiladagi ota onalarning muomala madaniyati, nutqi so'zlashuv uslubi bevosita farzandining nutqiga ta'sir qilmasdan qo'ymaydi. Ota-bobalarimiz: "qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan. Chunki bola tabiatidan ma'lumki, ular taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladilar. Agar farzandlar sog'lom yoki nosog'lom muhitda tarbiyalansa, bu holat ularning nutqida, xatti-harakatida va tengdoshlari, o'zidan kattalar bilan muloqat jaroyonida seziladi.

O'zbek oilalaridagi farzandlarning nutqiy tarbiyasi borasida yana bir muhim jihat shundan iboratki, ota onalardan tashqari, bobabuvilarning o'rni beqiyosdir. Ijtimoiy hayotimizdagi bolalarning so'zlashuv jaroyonini kuzatsak, oilada yoshi ulug' insonlar tarbiyalagan farzandlarning nutqi, yosh ota-onalar tarbiyalayotgan bolalarning nutqidan ajralib turadi. Azal-azaldan ota-onalar o'z farzandlarining har taraflama tarbiyasini, jumladan nutqiy tarbiyasini ham ularning bobobuvilariga ishonib topshirganlar. Yoshi ulug' insonlar nabira, chevaralarining go'zal hulqli, xushmuomala, odobli bo'lib ulg'ayishlarida, o'zlarining pand-u nasihatlarini berib kelishmoqda.

Bir xil oilalarda bola nutqining o'sishi bilan maxsus shug'ullaniladilar, ba'zi oilalarda esa bola nutqining o'sishi o'z holiga tashlab qo'yilgan ya'ni, bu ish bilan ota-onalar mutlaqo shug'ullanmaydilar. Natijada bu yoshdagi bolalar so'z boyligi o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi.

Odatda ayrim ota onalar o'z bolalarini haddan tashqari erkalab, ular bilan bolalarcha, bolaga o'xshab tilini chuchuklantirib gaplashadigan bo'lib oladilar. Bu esa bolani maktabga borgunicha to'g'irlanmasa, bu narsa bolalar nutqining umumiy o'sishiga salbiy ta'sir qiladi. Tili chuchuk bolalar nutqidagi bu nuqsonni tugatmay, maktabga chiqarilsa, boshqa bolalar ularga "soqov", deb laqab qo'yadilar. Bolalar bunday laqabni eshitish natijasida, kam gapiradigan, o'zlarini chetga oladigan va

bolalarga qo'shilmaydigan bo'lib qoladilar bu esa ularning umumiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etadi. Bunday oqibatlar kuzatilmasligi uchun pedagog-tarbiyachi tomonidan ota-onaga tushuntirish ishlari olib borilishi zarur.

Ota-ona va tarbiyachi-pedagoglar hamkorligida nutqi to'g'ri rivojlanayotgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bola 3 yoshida 250-700 ta, 4 yoshli bolada bu ko'rsatkich anchagina yuqori ya'ni 1500-2000 ta so'zni tashkil qiladi. Bolalarning yoshi oshgan sari so'z boyligi ham yuqorilab boradi. 5 yoshli bolada esa 2500-3500 ga yaqin bo'ladi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar normal rivojlanishdagi bolalarning natijalari hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolaridan biri bu – ota-onalarning bola tug'ilgan paytdan boshlab muloqotni yo'lga qo'ymasliklaridir. Shu salbiy ta'sir tufayli bolalar nutqida kechikishlar paydo bo'ladi. Bolalar nutqining kechikishiga yana bir sababni aytishimiz mumkin. Bu sabab maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning savollari kattalar tomonidan javobsiz qoldirilishidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zining barcha savollariga javoblarini kitobdan o'qiy olmaydi, shu sababli u uchun kattalar bilan muloqat qilish juda muhim. Ular tufayli maktabgacha yoshdagi bola o'zi uchun dunyoni kashf etadi va insoniyat ega bo'lgan eng yaxshi va salbiy narsalarni o'rganadi. Aynan kattalar bolaga turli xil histuyg'ularni, nutq, idrok va boshqalarni ochadi. Agar kattalar bolaga qor oq, yer qora ekanligini tushuntirmasa, bolaning o'zi buni bilmaydi.

Buyuk olim va psixolog, "Tarixiy-madaniy konsepsiya"ning asoschisi bo'lmish, Vigotskiy shunday fikr bildiradi: "Bolaning psixik rivojlanish manbai bukattalarning bolalar bilan muloqat qilishidir". Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi rivojlanishida kattalarning ahamiyati juda yuqoridir. Bundan tashqari, bolaning tarbiyasiga ijobiy tas'ir qiluvchi maqollar, tez aytishlar, she'rlar, ertaklar ham o'rgatish bola nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, o'zbek xalq ertagi bo'lgan "Zumrad va Qimmat"ni bolalaga aytish orqali, Qimmatning nutqidagi so'zlarini so'zlamaslik va Zumradning nutqi qanchalik chiroyli va ma'noli ekanligini tushuntirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova.Sh.A "Maktabgacha pedagogika" Toshkent 2018
2. Nishonova.Z.T, Alimova.G.K "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2018
3. Qayumova.N.M "Maktabgacha pedagogika" TDPU-2013 yil
4. Babayeva.D.R "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". Toshkent, 2018-yil